

ZAMBURUG‘LI INFEKSIYALAR – YASHIRIN XAVF

Nazarov Nodirbek G‘ofur o‘g‘li

Annotatsiya: *Zamburug‘li infeksiyalar (mikozozlar) inson salomatligiga jiddiy xavf soluvchi kasalliklar sirasiga kiradi. Ular ko‘pincha immuniteti pasaygan shaxslar orasida uchraydi va klinik belgilari boshqa infeksiyalar bilan o‘xshash bo‘lgani sababli kech aniqlanadi. Ushbu maqolada eng keng tarqalgan zamburug‘li infeksiyalar — Candida va Aspergillus turkumiga mansub qo‘zg‘atuvchilar, ularning patogenezi, klinik ko‘rinishlari, tashxislash usullari hamda zamonaviy davolash yondashuvlari tahlil qilinadi. Zamburug‘li infeksiyalarning yashirin kechishi va og‘ir oqibatlariga olib kelishi, ularning erta aniqlanishi va profilaktikasi masalalari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *zamburug‘li infeksiya, Candida, Aspergillus, immunitet, mikozoz, antifungal terapiya.*

Kirish

So‘nggi yillarda zamburug‘li infeksiyalar global sog‘liqni saqlash tizimida dolzarb muammoga aylandi. Dunyo miqyosida har yili millionlab insonlarda turli xil mikozlar aniqlanmoqda. Ayniqsa, immunosuppressiv holatlar – OITS, saraton kasalliklari, transplantatsiyadan keyingi davr, antibiotiklarni ortiqcha qo‘llash kabi omillar fonida bu infeksiyalar tez tarqalmoqda. Zamburug‘lar tabiiy muhitda keng tarqalgan, ammo inson organizmiga kirgach, ayrim sharoitlarda patogenlik xususiyatini namoyon etadi.

Asosiy qism

1. Candida turkumiga mansub zamburug‘lar. Candida albicans — inson organizmida normal mikrofloraning bir qismi bo‘lib, odatda og‘iz bo‘shlig‘i, ichak, jinsiy a‘zolar va terida uchraydi. Biroq, immunitet pasayganida u patogen xususiyat kasb etadi.

Klinik belgilari:

- Og‘izda oq dog‘lar (soxta psevdomembranoz kandidoz);
- Qon zamburug‘li infeksiyasi — kandidemiya, bu sepsisga olib kelishi mumkin;
- Jinsiy a‘zolar kandidozi (ayollarda “aftob”, erkaklarda balanopostit).

Patogenez: Candida zamburug‘lari biofilm hosil qilib, hujayralarga yopishadi va antifungal dori ta’siriga chidamli bo‘ladi.

Davolash: Eng ko‘p ishlatiladigan dori vositalar — flukonazol, vorikonazol, amfoteritsin B, shuningdek, profilaktika maqsadida probiotiklar qo‘llanilishi mumkin.

2. Aspergillus turkumiga mansub zamburug‘lar

Aspergillus fumigatus eng xavfli turlaridan biri bo‘lib, asosan nafas yo‘llari orqali yuqadi.

Klinik shakllari:

- Invaziv aspergiloz – o‘pka to‘qimalarini zararlaydi;

- Allergik bronxopulmoner aspergilloz – bronxial astmaga o‘xshash belgilarga ega;
- Aspergilloma – o‘pkada zamburug‘ to‘plami hosil bo‘lishi.

Xavf guruhlari: Immunosuppressiv bemorlar, uzoq muddatli kortikosteroid terapiyasi olgan shaxslar, transplantatsiya qilingan bemorlar.

Tashxis: Serologik testlar, PCR, mikroskopiya va rentgenologik tekshiruvlar asosiy ahamiyatga ega.

Davolash: Aspergillozda vorikonazol birinchi tanlov dorisi hisoblanadi. Og‘ir holatlarda amfoteritsin B yoki izavukonazol qo‘llaniladi.

3. Profilaktika va erta tashxisning ahamiyati

Zamburug‘li infeksiyalar kech tashxislangan holatlarda o‘lim darajasi 30–50% gacha yetishi mumkin. Shuning uchun:

- Antibiotiklardan asossiz foydalanishni cheklash;
- Immunitetni mustahkamlash;
- Shaxsiy gigiyenaga rioya qilish;
- Tibbiyot muassasalarida sterilizatsiya qoidalariga qat‘iy amal qilish zarur.

Zamonaviy diagnostik texnologiyalar, masalan, molekulyar biologik usullar (PCR) yordamida infeksiyalarni erta aniqlash imkoniyati mavjud.

Xulosa

1. Zamburug‘li infeksiyalar ko‘p hollarda “yashirin xavf” sifatida namoyon bo‘lib, klinik belgilarining noaniqligi tufayli kech tashxislanadi. Ayniqsa, Candida va Aspergillus turkumiga mansub zamburug‘lar inson organizmida og‘ir, hatto o‘limga olib keluvchi asoratlarni keltirib chiqaradi. Shu sababli zamburug‘li infeksiyalarni erta tashxislash, immunitetni mustahkamlash va antifungal profilaktika chora-tadbirlarini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kullberg B.J., Arendrup M.C. Invasive Candidiasis. New England Journal of Medicine. 2015;373:1445–1456.
2. Latgé J.P., Chamilos G. Aspergillus fumigatus and Aspergillosis. Clinical Microbiology Reviews. 2020;33(1):e00140-19.
3. Pfaller M.A., Diekema D.J. Epidemiology of Invasive Mycoses in North America. Journal of Clinical Microbiology. 2017;55(6):1509–1517.
4. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni Saqlash Vazirligi. Mikozozlarni tashxislash va davolash bo‘yicha klinik protokollar. Toshkent, 2022.
5. Denning D.W. The Global Burden of Fungal Diseases. The Lancet Infectious Diseases. 2021;21(10):e360–e369.